

O'PKA SARATONIDA KIMYOTERAPIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Tursunpo'lotov Xumoyun Xurshid o'g'li

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20117712>

Dolzarbligi O'pka saratoni zamonaviy tibbiyotning eng murakkab va dolzarb muammolaridan biridir. Ko'pchilik hollarda bemorlar kasallikning kech bosqichida murojaat qilgani sababli kimyoterapiya samaradorligi pasayadi va yashash prognozi yomonlashadi.[1] An'anaviy sitotoksik terapiya ba'zi hollarda rezistentlik yuzaga kelishi sababli o'smalarga yetarli ta'sir ko'rsatmaydi. Shu bois, kimyoterapiya samaradorligini oshirishga qaratilgan individual yondashuvlar va yangi strategiyalarni aniqlash dolzarb ahamiyatga ega.[2]

Tadqiqot maqsadi O'pka saratonida kimyoterapiya samaradorligini oshirish usullarini aniqlash va amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini baholash.

Tadqiqot materiallari va usullari 2024–2025 yillarda Toshkent shahridagi RIO va RIATIM markazlarida 50–75 yosh oralig'idagi 124 nafar erkak bemor o'pka saratoni tashxisi bilan kimyoterapiya davolanishi ko'rib chiqildi. Bemorlarning o'rtacha yoshi 59 ± 3 yoshni tashkil etdi. Bemorlar quyidagi tarzda baholandi: Kimyoterapiya protokoli tanlandi (platinum asosli yoki kombinatsiyalangan dorilar), Molekulyar profiling orqali maqsadli terapiya imkoniyati baholandi: davolash davomida samaradorlik va yon ta'sirlar kuzatildi, qo'shimcha strategiyalar (doz optimizatsiyasi, kombinatsiyalangan immunoterapiya) qo'llanildi. Kimyoterapiya samaradorligi quyidagi mezonlar bilan baholandi: tumor hajmining kamayishi (%), remissiya darajasi (to'liq yoki qisman), yon ta'sirlar va bemorning umumiy holati.

Natijalar 124 nafar bemorning: 50 bemor an'anaviy protokolga sezilarli javob berdi, 44 bemor kombinatsiyalangan yondashuv bilan yaxshi natija ko'rsatdi, 30 bemor rezistentlik yoki yon ta'sirlar tufayli davolash samarasi past bo'ldi. Kombinatsiyalangan terapiya natijalarini tahlil qilganda, quyidagilar kuzatildi: Remissiya darajasi oshdi (I–II bosqichlarda 86% bemorlar samarali javob berdi), Yon ta'sirlar minimal darajada kuzatildi, Individual yondashuv samaradorlikni sezilarli oshirdi.

Xulosa O'pka saratonida kimyoterapiya samaradorligini oshirish uchun: Bemorni individual genetik va molekulyar profiling asosida davolash, kombinatsiyalangan terapiya (kimyoterapiya + immuno yoki maqsadli terapiya) qo'llash, doz va davolash rejimini optimallashtirish, klinik tadqiqotlar va yangi preparatlar imkoniyatlaridan foydalanish muhimdir. Ushbu yondashuvlar bemorlarning yashash davomiyligi va hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi.[3]

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Molina JR, Yang P, Cassivi SD, Schild SE, Adjei AA. Non-small cell lung cancer: epidemiology, risk factors, treatment, and survivorship. *Mayo Clin Proc.* 2008;83(5):584–594.
2. Herbst RS, Morgensztern D, Boshoff C. The biology and management of non-small cell lung cancer. *Nature.* 2018;553:446–454.
3. Reck M, Rabe KF. Precision diagnosis and treatment for advanced non-small-cell lung cancer. *N Engl J Med.* 2017;377:849–861.